

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi Ma'naviyat  
bo'limi mudiri:Sh. Ahmadjanova*

Bugungi kunda ramziy qabrlari turli davlatlarda joylashgan aziz avliyolardan biri bo'lgan UVAYS QARONIYDIR. Bu ziyoratgoh xalq tilida Baliqli ko'l nomi bilan ataladi. Ushbu ziyoratgoh diqqatga sazovor joylardan biri bo'lib, O'zbekiston moddiy va madaniy me'rosining ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatiga 2019 yilda tasdiqlanib kiritilgan..

Uvays Qaraniy ziyoratgohi xalq tilida baliq ko'l deb ataluvchi ushbu maskan Namangan viloyati Chortoq tumani Bog'iston MFY da joylashgan joylashgan.

Ziyoratgohga ostona hatlab qadam qo'yar ekansiz garchi boshimizdan qizdirib tugan quyoshning zarrin nurlari mayin esayotgan shabodda oldida o'z kuchini yo'qotganday go'yo. O'ng tarafda dam olish ayvoni, xizmat ko'rsatish shahobchalari, to'g'rida muzey hamda kutubxona, maqbara uning yonida ayvon, 1400 o'ringa mo'ljallangan masjid, zamonaviy talablarga mos va hos tarzda bunyod etilgan mexmonhona hamda ko'lni ko'rishingiz mumkin. Bu maskanni ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan manzarali daraxtlar, yam-yashil maysalar, ochilgan gullarning tarovati dimog'ingizga uriladi.

Bunday o'ziga xoslik milliylikdan chetga chiqmagan holatda zamonaviylikni o'zida mujassamlashtira olgan barcha sharoitlarga ega holatda, tashrif buyuruvchi har bir ziyoratchini ko'nglini olishga taxt qilib qo'yilgan. 2017 yil 7 iyul kuni yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning viloyatimizga qilgan tashrifi davomida berilgan ko'rsatmalar asosida Uvays Qaroniy ziyoratgohning 6 gektar maydonida obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib, 1 ming 500 tupdan ortiq manzarali daraxt va gul ko'chatlari ekildi. Sulton Uvays Qaroniy maqbarasi to'liq qayta qurildi.

Maskanda ziyoratchilar bo'lishiga qaramay atrofni sukunat chulg'ab olgandek jimjitlik. Suv bo'yiga yaqinlashgan sari tabiatning mayin kuylayotgan

ohangiga guvohi bo'lasiz. Mayin esayotgan shabodda esa huddi sochlaringizni o'ynoqlab o'tadi. Ko'lining yuza qismi shaboda ta'sirida jim-jima qilayotgani, suvlari tiniqligidan suv ostida tebranayotgan suv o'simliklar, oxista harakatlanayotgan baliqlarni oynadek tiniq holda ko'rishingizga imkon beradi. Baliqlarni kuzatar ekansiz salgina qattiq esgan shabodaning kuchiga o'zlarini suv o'tlari orasiga olishadi.

Atrofni kuzatar ekanman o'rta yoshlardagi ikki ayolga ko'zim tushdi. Ular nimalarnidir pichirlab so'zashar edi. Qo'llarida qora yelim halta. Sekingina o'rnimdan turdimda ularga halaqit qilmagan holda asta sekin qadam tashlab otib boraytib behosta ulardan biri meni to'xtatdi va shunday dedi:-“ qizim ushbu narsalardan ol sen ham Yaratgandan neki yaxshi-niyatlaring, istaklaring bo'lsa shularni chin dildan so'rab bularni ko'ldagi baliqlarga tashla dedi, shosha pisha ularning qollaridagi yelim haltaga qo'l cho'zdim, savolomuz qaragan ko'zlarimga tushungan ayol bular non, shirinliklar, qantlar ular umring davomida nonday aziz, hayoting ushbu shirinliklar kabi shirin bo'lsin, niyatlaring yaratgandan ijobat bo'lishin biz ham tilab qolamiz ol qizim ko'proq olib olgin deya ikkinchi ayol ham qolidagi yelim haltadan hovuchimga to'ldirib solib qo'ydi!” Shu onda ichimdan muzdek ter chiqib tanam jimirlab ketdi yani xaql tilida aytganda (shuv etib ketdi) ularga qarab turar ekanman. Ularning bu ishlariga yashindek sodir bolgan bu voqealarga biroz karaxt bo'lib turib qoldim. Oz fursat o'tgandan so'ng men ham hovuchimdagi narsalarni ushlab olgan holda Yaratgandan ichimda barcha tilaklarni, orzu-istaklarimni aytib duo qidim va qo'limdagilarni ko'lga tashladim. Shu onda suv betini baliqlar egallab oldi.

Suvning tiniqligidan yuqoridagi masjid hamda maqbarani aksini ko'rishingiz mumkin. Bularni kuzata turib ko'nglingizni allanechuk hayollar chulg'ab oladi. Go'yo tarix o'z sir-sinoatlarini so'zlay boshlaganday.

Bu binolar mohir ustalar tomonidan zo'r mahorat bilan qad rostlaganiga guvoh bo'lasiz. Masjid qishloq aholisiga bemalol xizmat ko'rsata oladi. Odatdagidek namozlarni ado etish bilan birgalikda Juma, Hayit namozlarini o'qishga mo'ljallangan. Masjidning to'tr tomonida to'rtta minora bo'lib har biriga

ovoz kuchaytirgichlar o'rnatilgan, Azon chaqirilayotganini qishloq aholisi bemalol eshitishga imkon beradi.

Yonidagi bino esa Payg'ambarimizga g'oyibona oshiq bo'lgan Uvays Qaroniy maqbarasidir. Maqbarada u kishining qabri joylashgan. Bu tabbaruk zotning qabrlari yettita davlatlarda bo'lib: Ozarbayjon, Suriya, Turkiya, Yaman, Tojikiston, eng quvonarlisi bizning yurtimizda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Namangan viloyati Chortoq tumanida ramziy qabrlari joylashgan.

Ularning maqbaralari kvadrat shaklda qurilgan bo'lib qarang ikki tomoni eshik, qolgan bir-biriga qarama-qarshi tomoni esa deraza qilib qurilgan. Tepasi katta gumbaz.

Shuningdek 1 ming 400 o'ringa mo'ljallangan majid, maqbara yonida ayvon, zamonaviy mehmonhona, muzey va kutubxona, 3 ta favvora, dam olish ayvonlari va xizmat ko'rsatish shahobchalari bunyod etildi.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, Bugungi kunda tashrif buyuruvchilar uchun barcha shaoirlarga ega bolgan mexnonxonalar xizmat ko'rsatish shaxobchalari barpo etilgan. Ayniqsa so'fiylik izdoshlari bu manzilni alohida qadrlaydilar. Chunki Uvays Qaroniy ushbu yo'nalishning asoschilaridan biri hisoblanadi. Kelgan ziyoratchilar tashvishlarini so'zlab niyatlariga ijobat so'rashadi. Chin dildan ibodat qilib ko'ngildagi eng ezgu-istaklariga yo'l izlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Guliston jurnali 6/2020
2. Manaviy xayot 4/2022
3. moziydan sado 1/2019